



INGLIZ TILIDA NISBAT KATEGORIYASI VA UNING SEMANTIK MAYDONI

Baxriddinova Farog'at Hamza qizi

Lavozimi Urgut tumani 81-maktabi ingliz tili o'qituvchisi
Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti II kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7608570>

Yurtimizda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi"ni amalga oshirish doirasida chet tillarini o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatida yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi.

Shaxs yoki narsaning harakati yoki holatni ifodalab, zamon, aspekt, mayl, nisbat, perfekt va boshqa grammatika kategoriyalariga ega bo'lgan so'z turkumi fe'l deyiladi. Fe'l asosan shaxs ko'rsatib keladi. Fe'llarning aniq va noaniq formalari (Finite) and non - finite forms of the verb fe'l formalari gapda tuslanib yoki tuslanmay kelishiga ko'ra aniq yoki predikativ forma va noaniq predikativ bo'lmagan formaga bo'linadi. Shaxs, zamon, son, mayl kategoriyalarida o'zgarib gapda kesim vazifasida keluvchi fe'l normalari fe'lning aniq yoki predikativ formalari deyiladi.

Nisbat kategoriyasi haqida gapirar ekanmiz, unga shunday izoh berish mumkinki, fe'lga xos nisbat kategoriyasi sintaktik struksiya tomonidan ifoda etilgan vaziyatning ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat xarakteri va uning yo'nalishini ko'rsatadi. Nisbat kategoriyasining tilde mavjudligi odatda fe'lning aniq nisbat shakllarini majhul nisbat shakllariga qarama-qarshi qo'yish yo'li bilan aniqlanadi. Bu asosiy fe'lning sifat-dosh 2 shakli ya'ni be - Ven yordamida yasaladi. Majhul daraja sintaktik qurilma egasi tomonidan ish harakatni o'zida qabul etishni ifodalaydi. Bu qurilmalardagi ega majhul yoki passiv ega deb yuritiladi va ish harakatning obyektini vazifasini o'taydi. Aniq nisbat shakli bu oppozitsiyaning kuchsiz a'zosi bo'lib, mazkur ma'noni umumlashtirgan holda nomajhullik tarzida ifoda etiladi. Bu nomajhullik o'zbek tilida kauzativ nisbat o'zlik nisbat, birgalik nisbatlar tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Ingliz tilida fe'llarning majhul nisbat shaklida ishlatilish ko'lami ancha kengdir. Jumladan ingliz tilida o'zbek tilidagidek faqatgina o'timli fe'llar emas, balki o'timsiz fe'llar ham majhul nisbat shaklida ham ishlatilaveradi. Masalan:

Tom has just been rung up by the police.

Tomga hozirgina politsiyadan qo'ng'iroq qilishdi.

The diplomat was refused transit facilities through London. Diplomatsga London orqali o'tishga ruxsat





berilmadi.

Birinchi gapda ingliz tilidagi majhul nisbat shakli o'zbek tilida birgalik nisbat shaklida berilyapti. Ikkinchi gapda esa ingliz tilidagi majhul nisbat shakli o'zbek tilida ham saqlanmoqda.

Nisbat kategoriyasida sifatdoshlarning yasalishi katta ahamiyatga ega ya'ni bu shakl faqat ingliz tiliga xos. Present participle active (oddiy nisbatdagi hozirgi zamon sifatdoshi) fe'lining negiziga - to yuklamasi tushirib qoldirilgan infinitivga - ing qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi.

To read - o'qimoq. Reading - o'qiyotgan.

To stand - tik turmoq. Standing - tik turayotgan.

To study - o'rganmoq. Studying - tik turayotgan.

To'g'ri fe'llarning Past Participle shakli fe'lining asosiga -ed qoshimchasini qo'shish bilan yasaladi.

To ask - so'ramoq. Asked - so'ralgan.

To order - buyurmoq. Ordered - buyurilgan.

Noto'g'ri fe'llarning o'tgan zamon sifatdosh shakli fe'lining o'zagiga o'zgarish bilan yasaladi.

Nisbat kategoriyasi barcha tillarda eng noaniq muammodir. Ba'zi olimlar nisbat kategoriyasi eganing harakatini anglatadi desa boshqalari obektga yo'naltirilgan ish - harakatni ko'rsatadi deb fikr bildiradi.

M. M. Guxman ta'kidlashidan "nafaqat hind, yevropa tillarida balki, turk, mongol, kavkaz tillarida ham nisbat kategoriyasi eng noaniq, tushunarsiz va muhokama talab etadigan muammodir". Bunga I. P. Muchnik fikrini qarama-qarshi qo'yish mumkin. Rus tilida deb yozadi u, "Nisbat kategoriyasi nazariy rus tilida tortishuvli bo'limdir". Bu shundan dalolat beradiki, bu kategoriya leksikaning ko'p qirralari, so'z yasalish morfologiya va sintaktik orasida murakkab bog'liqqa egadir. Nisbat kategoriyasi asosan fe'l bilan bog'liq bo'lganligi uchun morfologiya tilning asosiy tilning negizi sifatida qarashimiz kerak. Nisbat kategoriyasi zamon mayl formalarida farqlanadi. Shuning uchun G. Paul zamon va mayl formasi deb yozadi u, o'z-o'ziga sintaktik forma emas, ular o'zaro aloqaga kirishganda murakkab gaplardagina sintaktik munosabatga kirishadi.

Aniq va majhul nisbatning farqi avvali sintaktik bo'lib, nisbat fe'l kesim orasidagi munosabatdan boshqa narsa emas.

M. M. Guxman fikrini hisobga olib "nisbat oppozitsiyasining ma'no strukturasi aniq sintaktik bo'lganda aniqlanadi". L.L. Bulanin rus tili materiallarida nisbat muammosini quyidagicha xulosalaydi.





“Xulosa qilib aytsak, aniq va majhul nisbatni qarama - qarshi qo‘yish bu formani o‘z ichiga olgan sintaktik kostruksiyani qarama qarshi qo‘yishdir”.

Nisbatni morfologik kategoriya interpretatsiyasini nazariyasi deb qarab, lingvistlar nisbat qarama – qarshiligini gap strukturasiida active – aniq va passive – majhul nisbat deb ataydilar. Bu shundan dalolat beradiki, aniq va majhul nisbat morfologik birlik emas balki sintaktik birlikdir chunki u gap strukturasiida sodir bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax.Sangzor. 2006. – 91 b.
2. Safarov Sh. Pragmalingvistika O‘zbekiston milliy milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. T. 2008.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.2004. 11-tom.
4. Dreiser T.An american Tragedy.Moscow.1951.
5. Sultanova D. A manual of Translation. Samarkand. 2005.
6. Bunayev. S. “English grammar”. 2001
7. L. A. Glazageva “Ingliz tili grammatikasi” 2000
8. Gabriele Stoble. “Just enough grammar” New York. 2008

